

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.O.Raxmonova	
Ingliz tilidagi "Food"/"Oziq-ovqat" konseptining milliy xususiyatlari.....	1101
Sh.G.Akbarova	
A comparative analysis of the original and the translations of the essay "The stranger" (L'étranger) by Alber Camus.....	1107
Sh.G.Akbarova	
Alber Kamyu asarlari tarjimasiga mazmun va mohiyat ta'siri	1111
Sh.G.Akbarova	
O некоторых тайнах Французских артиклей	1115
D.A.Ganieva, G.S.Mirzayeva	
Realiyalarning madaniy konnotativ xususiyatlari.....	1118
G.S.Mirzayeva	
Lingvokulturemalar tarjimasida translitratsiya usuli	1122
N.K.Abbasova	
Formation of foreign-language communicative competences in language learners using english proverbs and sayings.....	1125
A.A.Qayumov, A.B.Kosimova	
Jahon adabiyotida drabbllarning o'rganilishi	1130
D.I.Mirzayeva	
O'xshatish uslubiy kategoriyasining semantik-stilistik xususiyatlari.....	1134
D.A.G'aniyeva, S.Yaxyoyeva	
Abbreviatsiya so'z yasashning samarador usuli sifatida	1137
Sh.B.Dushatova	
Unveiling implicit meaning: exploring the subtext of euphemisms	1140
Sh.B.Dushatova, X.J.Xoliqova	
The psychology of euphemisms: why do we use them?.....	1144
Z.M.Xalilova	
Kognitiv tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida	1148
A.S.Toshmatov	
Beyond grammar: building confidence and clarity in student writing (higher education)	1153
N.X.Qurbanov	
The positive effects of video games in teaching english to beginner-level learners	1160
D.E.Normatova	
Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati	1166
D.R.Axmadaliev	
Talabalarning ingliz tilida nutqi kompetensiyasini o'yin texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasi.....	1171
N.Sh.Abdullayeva	
Talabalarning xonijiy tilda kasbiy muloqotini o'rgatish jarayonida clil texnologiyalarining integratsiyasi	1177
S.A.Aliyeva	
Geortonimlar bilan bog'liq perifrazalar tadqiqi	1182
S.A.Aliyeva	
Turli tizimli tillarda geortonimik indikatorlarning leksik-semantik xususiyatlari	1185
M.A.Axundjanova	
A cooperative small group methodology in teaching english for esp students	1189
R.M.Shukurov, F.B.Abduraximova	
Turli tizimli tillarda so'z yasalishining umumiy va farqli jihatlari	1193
F.B.Abduraximova	
O'zbek tilida mubolag'a va uning darajalanishi	1203
Sh.F.Latipov	
Unveiling the significance of linguistic lacuna in foreign language teaching	1208
L.T.Galimullina	
Semantic peculiarities of english phraseological synonyms with the component of precious stones and metals	1210



UO'K: 81-13.81'0.809.437

**KOGNITIV TILSHUNOSLIK ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING YANGI YO'NALISHI
SIFATIDA**

**КОГНИТИВНАЯ ЛИНГВИСТИКА КАК НОВОЕ НАПРАВЛЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ
ЛИНГВИСТИКИ**

COGNITIVE LINGUISTICS AS A NEW BRANCH OF MODERN LINGUISTICS

Xalilova Zarnigor Muhammadjon qizi 

Farg'ona davlat universiteti, chet tillari fakulteti, chet tillari kafedrasи ingliz tili o'qituvchisi.

Annotatsiya

So'nggi yillarda tilshunoslikda "kognitiv" va "kognitiv fanlar" atamalari keng qo'llanilmoxda. Ko'plab tadqiqotchilar zamonaviy tilshunoslikda yangi "kognitiv" paradigmalarining paydo bo'lganligi haqida ta'kidlamoqdalar. Ko'plab tadqiqotchilarining fikriga ko'ra tilga antroposentrik yondashuv ya'ni tilni inson tafakkuri va ongi bilan chambarchas bog'langan holda o'rganish zamoneviy tilshunoslik ilmida yangi yo'nalishlar kognitiv tilshunoslik hamda lingvomadaniyatshunoslikning vujudga kelishiga zamin yaratdi. XXI asr tilshunosligining peshqadam sohasiga aylanib ulgurgan kognitiv tilshunoslikning vujudga kelish tarixi amerikalik tilshunos Noam Chomkiy nazariyasи bilan bog'lanadi. Taniqli rus tilshunosi Maslova o'zining "Kognitiv Tilshunoslik" nomli kitobida kognitivizmni inson ongi, tafakkuri va ular bilan bog'liq bo'lgan ruhiy jarayonlar va holatlari o'rganadigan ilmiy yo'nalish deb ta'riflaydi. Demyankova va Kubryakovaning fikricha, kognitiv tilshunoslik tilni axborotni kodlash va uzatishda rol o'yinaydigan kognitiv mexanizm sifatida o'rganadi. Tilning dunyonи anglashdagи roli haqidagi mulohazalar antik davrdan hozirgi kungacha turli davr va xalqlarning mutafakkirlarning qarashlanda uchraydi.

Аннотация

В последние десятилетия в лингвистике все чаще используются термины "когнитивный", "когнитивная наука". Некоторые исследователи пишут о возникновении новой, "когнитивной" парадигмы в лингвистике. По мнению исследователей, антропоцентрический подход к языку, изучающий язык как неразрывно связанный с человеческим мышлением и сознанием, заложил основу для появления новых направлений в современной лингвистике - когнитивной лингвистики и лингвокультурологии. История возникновения когнитивной лингвистики, ставшей ведущим направлением в языкоznании XXI века, связана с теорией американского лингвиста Ноама Хомского. Известный российский лингвист Маслова в своей книге "Когнитивная лингвистика" определяет когнитивизм как "направление науки, объектом изучения которого является человеческий разум, мышление и те психические процессы и состояния, которые с ними связаны". В интерпретации Демьянковой и Кубряковой, когнитивная лингвистика изучает язык как когнитивный механизм, играющий роль в кодировании и преобразовании информации. Размышления об участии языка в познании мира можно найти в трудах мыслителей разных времен и народов от античности до наших дней.

Abstract

In recent decades in linguistics are increasingly used terms "cognitive", "cognitive science". Some researchers writing about the emergence of a new, "cognitive" paradigm in linguistics. According to researchers, the anthropocentric approach to language, studying language as inextricably linked with human thinking and consciousness, has laid the groundwork for the emergence of new directions in modern linguistics - cognitive linguistics and linguaculturology. The history of the emergence of cognitive linguistics, which has become a leading field in 21st century linguistics, is associated with the theory of American linguist Noam Chomsky. Famous Russian linguist Maslova in her book named "Cognitive Linguistics" defines cognitivism "the direction of science, which is the object of study of the human mind, thinking and those mental processes and conditions that are associated with them". By interpretation of Demyankova and Kubryakova, cognitive linguistics studies language as a cognitive mechanism that plays a role in encoding and transforming information. Reflections about the participation of language in knowledge of the world can be found in the works of thinkers of different times and peoples from antiquity to the present day.

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, zamonaviy tilshunoslik, til va ong, ma'no hosil qilish, kontseptualizatsiya.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, современная лингвистика, язык и сознание, образование значений, концептуализация.

Key words: cognitive linguistics, modern linguistics, language and consciousness, making meanings, conceptualization.

KIRISH

Inson muloqotining murakkab tarmog'ida til asosiy vosita hisoblanib, u nafaqat o'zaro aloqalarni osonlashtiriradi, balki inson ongi hamda jamiyatning murakkab jarayonlarida debocha bo'lib xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, an'anaviy tilshunoslik uzoq yillar davomida tilning tuzilishi, faoliyati va rivojlanishini tushunishga intilgan, va ko'p hollarda tilga qoidalar va an'anaviy usullar bilan boshqaniladigan alohida tizim sifatida qaragan. Biroq, til, uni idrok etish hamda madaniyat o'rtasidagi munosabatlar va o'zaro bog'liqlik ilgari taxmin qilinganidan ancha murakkabligi bugungi kun tilshunoslarning diqqat markazidagi dolzarb mavzu sifatida qolmoqda. Ko'plab tadqiqotchilarining fikriga ko'ra tilga antroposentrik yondashuv ya'ni tilni inson tafakkuri va ongi bilan chambarchas bog'langan holda o'rganish zamonaviy tilshunoslik ilmida yangi yo'naliishlar kognitiv tilshunoslik hamda lingvomadaniyatshunoslarning vujudga kelishiga zamin yaratdi.

XXI asr tilshunoslarning peshqadam sohasiga aylanib ulgurgan kognitiv tilshunoslarning vujudga kelish tarixi „zamonaviy tilshunoslarning otasi“ deya ta'riflangan amerikalik tilshunos Noam Xomkiyning transformatsion-generativ grammatika nazariyasi bilan bog'lanadi. Xomskiyning ushbu nazariyasi til tadqiqotlarini yangi bosqichga ko'tardi. U til tizimini o'rganishda inson ongi va bilish jarayonlarining muhimligini ta'kidlab, tilshunoslikni nafaqat lingvistik qoidalar va tuzilmalar bilan, balki kognitiv jarayonlar bilan ham bog'lagan. Bu esa keyinchalik kognitiv tilshunoslarning vujudga kelishida muhim asos bo'ldi. Sababi, kognitiv tilshunoslik inson ongidagi til hodisalarini bilish jarayonlari bilan bog'liq holda o'rganishni asosiy maqsad qilib oldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

1970-1980- yillarda esa inson ongidagi bilish jarayonlari tilning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi degan g'oya paydo bo'ldi. Natijada kognitiv tilshunoslik, kognitiv semantika, kognitiv grammatika kabi yangi tadqiqot yo'naliishlari rivojlana boshladi. Ko'plab ingliz tadqiqotchilar Ch. Fillmore (Frame Semantics , 1988) G. Lakoff (Conceptual Metaphor Theory, 1981,1987), R. Langacker (Cognitive Grammar, 1987), L. Talmy (Cognitive nature of grammar 1985, 1988) kabilar yuqorida keltirilgan yonalishlarda olib borgan ilmiy izlanishlari kognitiv tilshunoslarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Kognitiv tilshunoslik atamasining rasman paydo bo'lishi esa 1989-yil Deysburgda (germaniya) o'tkazilgan tilshunoslarning aynan ushbu sohasiga bag'ishlangan konferensiyaga to'g'ri keladi. Zamonaviy tilshunoslarning bu yo'naliishi tilni o'rganish va tushunishda yangi yondashuvni qo'llagani uchun ilmiy hamjamiyatda katta e'tibor va hurmat qozondi. Ko'plab olimlar kognitiv tilshunoslarning psixologiya, falsafa, neyrofiziologiya, politologiya, sotsiologiya, etnografiya, antropoligvistika kabi fanlarning uyg'unligi asosida vujudga kelganligini, hamda ushbu fanlararo bo'shilqni bartaraf etish xususiyatini ta'kidlashadi.

Rus tilshunoslida esa kognitiv tilshunoslukka qiziqish biroz kechroq uyg'onaniga qaramasdan rus tilshunoslarning ushbu sohaga qo'shgan hissalar salmoqlidir. Kognitiv tilshunoslarning asosiy tushunchalari, jumladan, olamning konseptual tasviri, tilda inson omili va konseptual yaratuvchanlik kabi g'oyalar rus tilshunoslari E.S. Kubryakova, N.N. Boldirev, M.V. Nikitin, N.F. Alefirenko, Yu.S. Stepanov, R.M. Frumkina, Z.D. Popova, I.A. Sternin va boshqa olimlar tomonidan rivojlantirilganligi katta ahamiyatga egadir.

Z.D.Popova va I.A.Sternin ta'biri bilan aytganda, kognitiv tilshunoslilik –tilshunoslarning jadal rivojlanib borayotgan bir yo'naliishidir. Qolaversa kognitiv tilshunoslilik turli tuman konseptlar, ularni ifodalovchi verbal va noverbal vositalarni kategoriyalarga ajratib o'rganadigan va ularni ko'zlangan nutq hamda muloqot maqsadlariga muvofiq holda to'g'ri qo'llay olishlik layoqatiligi masalalarini ham tahlil qiladigan tilshunoslarning sohasi bo'lib hisoblanadi.⁶⁶

Kubryakova esa kognitiv tilshunoslilikni, tilni umumiy kognitiv mehanizm sifatida o'rganishga yo'naltirilgan tilshunoslilik yo'naliishi sifatida qayd etadi, uni ma'llimotlarni tasvirlash (kodlash) va o'zgartirishda ishtirok etadigan belgilarni tizimi sifatida ta'riflaydi.⁶⁷

S.G.Ter-Minasovaning fikriga ko'ra, kognitologiya tilshunoslilik bilan birlashib, butunlay yangi tadqiqot yo'naliishi – kognitiv tilshunoslilik faniga asos soldi. Bunday birlashuv idrok qilish, tilni

⁶⁶ Popov Z.D. Sternin I A когнитивная лингвистика Учебное издание федеральное агентство по образованию Варонежский государственный университет Москва АСТ:Восток-Запад(2007. Зс).

⁶⁷ Кубрякова Е. С., Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. — М.: Языки славянской культуры, 2004.

egallash va uni qayta ishlab, rejalashtirish, muammoni yechish, fikrlash, o'rgatish, taqdim qilish va bilimlarni amalda qo'llash kabi masalalarni kognitologiya fanining asosiy tekshiruv obyekti qilib belgiladi.⁶⁸

Shunday qilib, kognitologiya borliqni o'rganish, in'ikos qilish haqidagi fan hisoblanadi. Kognitiv lingvistika kognitologiyaning bir sohasi hisoblanib, uning obyekti bu - til. Kognitiv yondashish orqali insonning nutqi, so'zlay olishi va tinglaganini tushunish qobiliyatini kuzatish hamda tahlil qilish mumkin. Bir so'z bilan aytganda kognitiv tilshunoslik o'z e'tibor markaziga axborotni olish, qayta ishlash va saqlash hamda shu axborotdan vaziyatga muvofiq foydalanish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ya'ni yangi ma'lumot olinganda, odamlar uni o'zining xotirasidagi mavjud ma'lumotlar bilan bog'lashadi va natijada yangi ma'nolarni kashf etishadi.

Yana bir shunday yondashuvni biz V.I. Karasik va I.A. Sterninlarning fikrlarida ko'rishimiz mumkin: „Kognitiv tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikning mustaqil sohasi hisoblanib, u kognitiv fanlardan ajralib chiqqan hamda uning boshqa kognitiv fanlardan farqi aynan uning materialidadir, u til materialida ongni tadqiq qiladi (boshqa kognitiv fanlar ongni o'z materiallarida tadqiq qiladi), shuningdek, u konseptlar va kognitiv jarayonlarni o'rganadi, inson ongidagi konseptlarning turlari va mazmuni haqida xulosa qiladi”.⁶⁹

An'anaviy yondashuv asosida til birinchi navbatda mavjud fikrlash strukturalarini aks ettiradi yoki ularning ifodalanishi uchun xizmat qiladi. Biroq, kognitiv tilshunoslik ushbu nuqtai nazardan voz kechadi, chunki u til va tafakkur o'rtasidagi yanada dinamik va o'zaro bog'liqlikni ta'kidlaydi.

Dunyoqarashimiz, tasniflashimiz va kontseptsiyalashimizga ona tilimizning til tuzilishi va shakllari katta ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, ong, xotira va fikrlash kabi kognitiv faoliyatlar til tuzilmalarini belgilashda muhim o'rinn tutadi. Bu esa til va tafakkur o'rtasidagi munosabatni ikki tomonlama ta'sirlanish sifatida ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, til bizning kognitiv tajribamizning mahsuli bo'lish bilan birga, u o'z navbatida tafakkur jarayonlarini ham shakllantirib boradi. Til va tafakkur o'rtasidagi bu o'zaro ta'sir kognitiv tilshunoslikda muhim rol o'ynaydi.

V.A. Maslova fikriga ko'ra, „kognitiv tilshunoslikning maqsadi – dunyonidrok qilish, kategoriyalash, tasniflash va anglash jarayonlari qanday amalga oshirilishini, bilimlarni to'plash qanday sodir bo'lishini, turli xil faoliyat turlari uchun qanday tizimlar ma'lumot bilan ta'minlashini tushunishdir”.⁷⁰

Kognitiv tilshunoslik insonning dunyoqarashi va ongingining til bilan bog'liq tuzilishini modellashtirishga qaratilgan. Maslovaning ta'rifini bilan aytganda, aynan til ong va fikrlash jarayonlariga tabiiy kirishni ta'minlaydi, chunki ko'plab fikr faoliyatining natijalari so'z bilan ifodalanadi. Bundan tashqari, “biz ong tuzilmalari haqida faqat til orqali bilamiz, chunki til ushbu tuzilmalardan xabar berish va ularni har qanday tabiiy tilga tarjima qilish imkonini beradi”.⁷¹

Bundan tashqari, Maslova ta'kidlaganidek, biz ong tuzilmalari haqida faqat til orqali bilamiz. Til insonning fikrlash jarayonlarini matn, so'z va iboralar orqali ifoda qilish imkonini beradi. Misol uchun, biz “sevgi”, “umid”, “qo'rquv” kabi abstrakt tushunchalarni so'zlar orqali ifoda qilamiz va boshqalarga yetkazamiz. Til bu yerda vosita bo'lib, u ongimizdagisi tuzilmalardan xabar beradi va ularni har qanday tabiiy tilga tarjima qilish imkoniyatini yaratadi.

Xullas, til inson ongingining asosiy vositasi bo'lib, fikrlarni ifoda qilish va ulashish uchun zarurdir. Til orqali biz nafaqat o'z fikrlarimizni boshqalarga yetkazamiz, balki ongimizdagisi tuzilmalarning mazmunini ham anglaysiz. Bu yondashuv til va ong o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni ochib beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kognitiv tilshunoslik til va ong o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni o'rganadi, ushbu yondashuvga ko'ra til nafaqat fikrlash jarayonlarini aks ettirish vositasi, balki ularning shakllanishida faol ishtirot etadi. Til inson idrokiga, bilimlariga va madaniy tajribasiga bog'liq holda shakllanadi. Shu bilan birga, til o'z navbatida ushbu kognitiv jarayonlarni belgilashda muhim rol o'ynaydi. Boshqacha qilib aytganda, til va ong bir-birini o'zaro shakllantirib, boyitib boruvchi murakkab sistema hisoblanadi.

⁶⁸ Тер-Минасова С. Г. Т35 Язык и межкультурная коммуникация: (Учеб. пособие) — М.: Слово/Slovo, 2000. с.38

⁶⁹ Карасик В.И., Стернин И.А.(ред.). Антология концептов. Т.1. Волгоград: Парадигма, 2005.-347с

⁷⁰ Маслова В. А. Введение в когнитивную лингвистику. — М.: Флинта; Наука, 2007. — 293 с.

⁷¹ Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. — М.: Языки славянской культуры, 2004. — 560 с.

TILSHUNOSLIK

Bu holat bizga til orqali inson ongining tuzilishi, uning milliy-madaniy xususiyatlari haqida chuqur tushuncha beradi.

O'zbek tilshunosligida ham ushbu yo'nalishda sermahsul ijod qilib, o'zlarining bir qator kognitiv tilshunoslikning dolzarb muammolariga bag'ishlangan qo'llanma va ilmiy maqolalari bilan ushbu yo'nalishni har jihatdan boyitib kelayotgan tilshunos olimlar Sh.Safarov, U.Yusupov, G.M.Xoshimov, A.Mamatov, D.U.Ashurova, A.A.Abdulazizovlarning o'zbek tilshunosligida tilshunoslikning yangi va istiqbolli yo'nalishi sifatida rivojlanib kelayotgan kognitiv tilshunoslikning rivoj topishiga qo'shgan hissalarini e'tirofga loyiqdir.

Kognitiv tilshunoslik bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borgan tilshunos Sh.Safarovning fikriga ko'ra, kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasi inson ongida kechadigan mental jarayonlarni lisoniy faoliyat bilan bog'liq holda o'rganishdir, uning tahlil obyekti esa bilim olish, uni amalda qo'llash hamda uzatish manbai va uni shakllantiruvchi vosita bo'lgan til tizimi hisoblanadi.⁷²

Professor G'. M. Hoshimov esa "Kognitiv tilshunoslik – inson tomonidan borliq dunyo voqeligini til orqali anglanishi, o'rganilishi, ya'ni konseptlar vositasida uning in'ikos etilishi, his va idrok qilinishi kabi inson ongida kechuvchi murakkab konseptual jarayonlar bilan bog'liq muhim yo'nalishdir" deb ta'kidlaydi.⁷³

Shunga ko'ra, ushbu sohaning asosiy vazifalaridan biri kognitiv tahlil hisoblanadi. Kognitiv tahlil orqali til va ongning o'zaro aloqadorligi, inson tafakkuri, dunyonidagi idrok etish usullari kabi murakkab masalalar o'rganiladi. Bu esa tilshunoslikning boshqa sohalarini chuqurlashtirish va yangi bilimlar hosil qilishga xizmat qiladi.

A.E. Mamatov o'zining "Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada?" nomli maqolasida quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tadi: „Kognitologiya inson idroki va tafakkuridagi murakkab fenomenon haqidagi to'liq adekvat tasavvurlarga ega bo'lism uchun turli xil soha olimlarining jamlangan yaxlit fikrlarini o'rganadi. Kognitiv tilshunoslik ana shu jamlangan fikrlarning bevosita til bilan bog'liqligini, kognitiv va lisoniy strukturalarning munosabatini o'rganadi, tadqiq qiladi".⁷⁴

Darhaqiqat, kognitologiya inson idroki va tafakkuridagi murakkab fenomenlarni tushunish uchun turli sohalar bo'yicha olimlarning jamlangan fikrlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Bu yondashuv ko'plab fanlarni, jumladan, psixologiya, nevrologiya, tilshunoslik, antropologiya va sun'iy intellektni o'z ichiga oladi. Ta'kidlash joizki, kognitiv tilshunoslik „xuddi shunday sohalararo muloqotning mahsulidir. Bunday muloqotning tez, osongina, ixtiologlarsiz kechishi qiyin. Shu sababli kognitiv tilshunoslikning mustaqil yo'nalish sifatida tarkib topishi ham murakkab jarayon, lisondek o'ta murakkab tadqiq obyektini tanlagan har qanday fan sohasining murakkab muammolar qamrovida qolishi ham muqarrar".⁷⁵

J.A.Yoqubov ham kognitiv tilshunoslikning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi haqida quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tadi: "kognitiv tilshunoslikning semantika yoki psixologiyadan kelib chiqqanligi haqida farazlar borligini nazardan chetda qoldirishimiz kerak emas". Shunday ekan, kognitiv tilshunoslik olamni til yordamida idrok qilishda, bilishda muhim rol o'ynaydi, shu bilan birga, kognitiv tilshunoslik boshqa kognitiv fanlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning yondashuvlaridan foydalanadi. Bu esa bir-birini to'ldiruvchi yondashuvlar orqali ilmiy bilimlarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yana bir tilshunos olim A.A.Abdulazizov kognitiv tilshunoslikning tarkibiy qismlariga haqida o'rganar ekan, uni „o'zaro bir-birlari bilan bog'liq bo'lgan kognitiv fonologiya, kognitiv grammatika, kognitiv semantika" yo'nalishlarini o'z ichiga olishini ta'kidlab o'tadi.⁷⁶

XULOSA

Yuqorida fikrlarga qo'shimcha qilib shuni aytishimiz mumkinki, kognitologiya olamni bilish kabi masalalar bilan bog'langan bo'lib, har bir so'z zamirida ana shu so'zning kognitiv asosi yotadi.

⁷² Sh.Safarov kognitiv tilshunoslik "Sangzor"(2006.10-12).

⁷³ Hoshimov G'. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике // Систем-структур. Tilshunoslik muammolari. Filologiya fanlari doktori, professor N.K. Turniyozov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlangan Respublika ilmiy-nazariy konferensiysi materiallari. Samarqand 2010

⁷⁴ Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг мөхияти нимада? // Тилшуносликнинг долзарб масалалари: Проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига багишлаб ўтказилган илмий-амалий анжуман

⁷⁵ Sh.Safarov kognitiv tilshunoslik "Sangzor"(2006.5)

⁷⁶ Абдулазизов А. О составных частях контитивной лингвистики// Хорижий фил.Т.:2007, №3-с 5-6

Kognitiv tilshunoslik kognitologiyadan kelib chiqqan bo'lib, bunda kognitiv jihatdan konseptni, lingvistik jihatdan esa tilni o'rganadi. Shunga ko'ra, kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifalari va maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Tilning inson uchun atrofdagi muhit, madaniyat, tarix va urf-odatlarni o'rganish, tushunish va anglab olishdagi o'mini aniqlash.

2. Insonlarning mavjud tajriba va bilimlarini tildan foydalangan holda tartibga solish va boshqalarga yetkazish jarayonlarini tadqiq etish.

3. Olamni, atrofdagi muhitni, sodir bo'lgan va bo'layotgan voqealarni bilish, idrok qilish va aks ettirish jarayonlarida til faoliyatining o'rni va ahamiyatini ochib berish.

Boshqacha qilib aytganda, kognitiv tilshunoslik inson ongidagi bilimlar, tasavvurlar va tajribalarni tildan foydalanib ifodalash, yetkazish va o'rganishga qaratilgan bo'lib, til va bilish, til va dunyoni idrok etish o'tasidagi o'zaro aloqadorlikni chuqur tushunishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hoshimov G. К теории концептов и их таксономии в когнитивной лингвистике // Систем-структур. Tilshunoslik muammolari. Filologiya fanlari doktori, professor N.K. Turniyozov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlangan Respublika ilmiy- nazariy konferensiyasi materiallari. Samarqand 2010
2. SH.Safarov kognitiv tilshunoslik "Sangzor"(2006.10-12).
3. Абдулазизов А. О составных частях контитивной лингвистики// Хорижий фил.Т.:2007, №3-с 5-6
4. Ашуррова Д.У. Стилистика текста в парадигме когнитивной лингвистики// филология масалалари.Тошкент. 2003.№41-45
5. Карасик В.И., Стернин И.А.(ред.). Антология концептов.Т.1. Волгоград: Парадигма, 2005.-347с
6. Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. — М.: Языки славянской культуры, 2004. — 560 с.
8. Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? // Тилшуносликнинг долзарб масалалари: Проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишилаб ўтказилган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212-219
9. Маслова В. А. Введение в когнитивную лингвистику. — М.: Флинта; Наука, 2007. — 293 с.
- Ter-Minasova C. Г. T35 Язык и межкультурная коммуникация: (Учеб. пособие) — M.: Слово/Slovo, 2000.с.38
10. Попов З. Д. Стернин I A когнитивная лингвистика Учебное издание федеральное агентство по образованию Воронежский государственный университет Москва ACT:Восток-Запад(2007. 3с).